


YALPI HUDUDIY MAHSULOT





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 11 313,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 6,5 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 116,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,6 % ga yetdi.




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YaHM	9 099,6	11 313,1	106,5
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 507,2	10 244,4	106,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	592,4	1 068,7	106,2
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 507,2	10 244,4	106,5
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 606,3	1 883,0	100,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 354,1	4 182,4	109,3
	sanoat	2 554,7	3 201,7	107,2

		Mlrd. so‘m		O‘sish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	799,4	980,7	116,1
	Xizmatlar	3 546,8	4 179,0	106,6
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	463,5	554,0	107,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	540,1	652,6	112,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 543,2	2 972,4	105,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 5 868,1 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 90,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 18,4 % ni, sanoat tarmog'i 31,3 % ni, qurilish 9,6 % ni va xizmatlar sohasi 40,7 % ni tashkil qildi.




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020- yil	2021- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	93,5	90,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	6,5	9,4
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	18,9	18,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	39,4	40,9
	sanoat	30,0	31,3
	qurilish	9,4	9,6
	Xizmatlar	41,7	40,7
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,4	5,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,3	6,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	30,0	28,9




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

2020- yil




2021- yil



YaHMning o‘shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liqdir. O‘shish sur‘atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 100,4 % (YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 18,4 %), sanoatda – 107,2 % (31,3 %), qurilishda – 116,1 % (9,6 %), xizmatlar sohasida – 106,6 % ni (40,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘shish sur‘atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 107,1 % (5,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,6 % (6,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,2 % dan (28,9 %) iborat bo‘ldi.




Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘shish sur‘atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,1 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.), sanoat tarmog‘i – 2,0 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.) va qurilish tarmog‘i – 1,4 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida salbiy – 1,4 f.p.), xizmat ko‘rsatish sohasi – 2,6 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida salbiy – 0,2 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YaHM 0,4 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida salbiy – 0,3 f.p.)ga ko‘paydi.



**2021- yilning yanvar-iyun oylarida
YaHM o‘shishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)**




2021- yilning yanvar-iyunida YaHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 116,8 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoatda – 116,9 % va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 116,7 % qayd etildi.




Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Yanvar-iyun oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi
(jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 49,9 % ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-iyunida – 50,4 %).

YaHMning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.